



BUYRAKLAR KASALLIKLARINING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI

Isomadinova L.K.

Yulayeva I.A.

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Samarqand, Uzbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10036979>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 17-October 2023 yil

Ma'qullandi: 20- October 2023 yil

Nashr qilindi: 24- October 2023 yil

KEY WORDS

buyraklar, sistatin S, kreatinin, mochevina, kaliy.

ABSTRACT


Tibbiyot rivojlanish davrining cho'qqisida tibbiyotda yangi tahlillar kirib kelmoqda shu tahlillardan biri sistatin S tahlilidir . Sistatin S buyrak faoliyatida haqida baho beruvchi tahlillar biri hisoblanadi. So'nggi tadqiqotlarda sistatin tibbiyoti sohasida faol tadqiqotlar ob'ektiga aylandi. U buyrak faoliyatini baholash uchun qo'shimcha ma'lumot beradi va buyrak kasalliklarini tashxislash uchun ham ishlatilishi mumkin. Sistatin-bu oqsil bo'lib u o'pka, taloq va ichak kabi organlarda, shuningdek buyraklarda ishlab chiqariladi. U mushaklarda joylashgan kreatinin metabolizmida ham qatnashadi va buyraklar orqali chiqarilib tashlanadi. Qonda sistatin darajasi odatda barqaror bo'lib, uning kontsentratsiyasi jinsga, tana vaznga, yoshga bog'lik emas. Shuning uchun ham buyrak faoliyatini baholash uchun markerga aylantiradi.

Tadqiqot maqsadadi: Buyraklar patologiyasida sistatin S tahlilini kamchiligini va afzalligini baholash va uni buyraklar patologiyasida qachon ishlatilishini aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot ob'ekti sifatida 2023 yil avgust oyidan boshlab 2023 yil oktabrda sammu ko'p tarmoqlarini klinikasida Terapiya bo'limida surunkali buyrak etishmovchiligi bilan o'g'rigan 87 bemorlarda o'tkazildi. Bemorlarda umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili, kreatinin bilan koptokchalar filtratsiya tezligi va qon bioximiyasida umumiy oqsil miqdori, kreatinin miqdori, mochevina miqdori, qoldiq azot miqdori, kaliy miqdori va sistatin S miqdori aniqlandi.


Tadqiqot natijalari: Tajriba o'tkazish maqsadida bemorlar jinsga qarab ikki guruhga bo'lindi. Birinchi guruh 57 ta ayollar (35-63 yoshgacha) tashkil qilgan bo'lsa ikkinchi guruhni 30 ta kishidan iborat erkaklar(40-73 yoshgacha) tashkil qilindi. Qon umumiy tahliliga ko'ra birinchi guruhlarlar gemoglobin miqdori pasayishi 57(100%) kishida aniqlandi, rbc miqdori 47 (82%) da pasaygan. Leykositlarning miqdori oshishi 3(5.2%) kishida aniqlandi. va ECHT 57 (100%) kishida oshishi aniqlandi. II guruh tekshuruvchilarning tekshirganda quyidai natijalar aniqlandi qon umumiy tahliliga ko'ra gemoglobin miqdori pasayishi 25(83.3%) kishida aniqlandi, RBC miqdori 28 (93.3%) da pasaygan. Leykositlarning miqdori oshishi

5(16.6%) kishida aniqlandi va EChT 30(100%) kishida oshishi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm umumiy qon tahlilidagi o'zgarishlar


Umumiy siydik tahlilida I guruhni tekshirganda quyidagi o'zgarishlar aniqlandi. Leykositlar miqdori 7(12.2%) kishida siydikda oshgan. Oqsil miqdori 57 (100%) kishida siydikda aniqlanadi. Mumsimon silindrlar 46(80%) kishida siydikda topildi. Buyrak epiteylisi 57(100%) kishida topildi. Umumiy siydik tahlilida II guruhni tekshirganda quyidagi o'zgarishlar aniqlandi. Leykositlar miqdori 10(33.3%) kishida siydikda oshgan. Oqsil miqdori 30 (100%) kishida siydikda aniqlandi. Mumsimon silindrlar 13(43.3%) kishida siydikda topildi. Buyrak epiteylisi 19(63.3%) kishida topildi. (2-rasm).



2 -rasm umumiy siydik tahlilidagi o'zgarishlar

Qon biokimyoviy tahlili I guruhda kreatinin miqdori 54 (94,7%) qon plazmasida oshgan, mochevina miqdori 57(100%) oshgan, qoldiq azot miqdori 57 (100%) ham oshgan, kaliy miqdorining oshishi 9(15.7%) oshganligini ko'rish mumkin va sistatin S miqdori 57(100%) oshdi. Qon biokimyoviy tahlili II guruhda kreatinin miqdori 30(100%) qon plazmasida oshgan, mochevina miqdori 30(100%) oshgan, qoldiq azot miqdori 30 (100%) ham oshgan, kaliy miqdorining oshishi 3(3.33%) oshganligini ko'rish mumkin va sistatin S miqdori 30(100%)

oshdi. (3-rasm).



3-rasm qon biokimyoviy tekshirish natijalari.

Xulosa: aniqlangan tadqiqot natijalarga ko'ra buyrak etishmovchiligi aniqlashda Sistatin miqdorini oshishi aniqlash katta ahamiyatga ega chunki uning miqdorini qon plazmasida boshqa faktorlarga bog'lik emas va buyrak etishmovchiligi birlamchi soatlarda aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Батюшин М. М. Методические основы оценки скорости клубочковой фильтрации в урологической практике //Вестник урологии. – 2017. – №. 1. – С. 42-51.
2. Главнова О. Б. и др. Возможности использования цистатина С в диагностике различных заболеваний //Журнал акушерства и женских болезней. – 2018. – Т. 67. – №. 4. – С. 40-47.
3. Клинические рекомендации. Хроническая болезнь почек (ХБП). – 2021.
4. Einwoegerer C. F., Domingueti C. P. Association between increased levels of cystatin C and the development of cardiovascular events or mortality: a systematic review and meta-analysis //Arquivos brasileiros de cardiologia. – 2018. – Т. 111. – С. 796-807.
5. Rifai N. Tietz textbook of clinical chemistry and molecular diagnostics. – Elsevier Health Sciences, 2017.
6. Berdiyarova Shohida Shukurullayevna, Isomadinova Lola Kamolidinovna, & Komulova Zarnigor Nabijonovna. (2023). Differential diagnosis of alcoholic and viral hepatitis. World Bulletin of Public Health, 21, 8-11.
7. L. K. Isomadinova, Z. E. Kudratova. Clinical and laboratory characteristics of vomiting in pregnant women in early pregnancy. Doctor's herald journal. №2_2023. P.52-56
8. Isomadinova L.K, Qudratova Z.E., Babaxanova F.Sh.clinico-laboratory features of the course of covid-19 with hepatitis b journal of new century innovations №-3_2023 P. 60-65.
9. Isomadinova L.K. Qudratova Z.E. Shamsiddinova D.K.Samarqand viloyatida urotilliaz kasalligi klinik-kechishining o'ziga xos xususiyatlari. Central asian journal of education and innovation №10_2023 , P. 51-53

10. Kudratova Z. E. Isomadinova L. K. Sirojeddinova S. F. Tursunova M. E. Current modern etiology of anemia. novateur publications international journal of innovations in engineering research and technology. № 10 _ 2023, P. 1-4



INNOVATIVE
ACADEMY